



UDK:796.5 M84

**Fazilat MUZROPOVA,**  
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti o'qituvchisi  
E-mail: muzropova94@mail.ru

*SamDAQU professori, t.f.n D.O.Juraqulov taqrizi asosida*

## RESEARCH OF THE TOURIST POTENTIAL OF KASHKADARYA REGION BASED ON CARTOGRAPHIC METHODS

Annotation

This article discusses the issues of systematic mapping of the tourism industry using cartographic methods and modern geoinformation technologies for data collection, storage, digitization, analysis, processing, maintenance of the state cadastre of tourist infrastructure objects, assessment and inventory of natural, historical and cultural resources, the development of new scientific and technical solutions for the definition and implementation is planned tourist and recreational areas, tourist routes.

**Key words:** Geoinformation technologies, tourist resources and infrastructure facilities, tourist maps, inventory, natural and recreational.

## ИССЛЕДОВАНИЕ ТУРИСТИЧЕСКОГО ПОТЕНЦИАЛА КАШКАДАРЬСКОЙ ОБЛАСТИ НА ОСНОВЕ КАРТОГРАФИЧЕСКИХ МЕТОДОВ

Аннотация

В данной статье рассматриваются вопросы систематического картографирования туристской отрасли с использованием картографических методов и современных геоинформационных технологий для сбора, хранения данных, их оцифровки, анализа, обработки, ведения государственного кадастра объектов туристской инфраструктуры, оценки и инвентаризации природных, историко-культурных ресурсов, намечена разработка новых научно-технических решений по определению и внедрению туристско-рекреационных зон, туристских маршрутов.

**Ключевые слова:** Геоинформационные технологии, туристские ресурсы и объекты инфраструктуры, туристские карты, инвентарь, природно-рекреационные.

## QASHQADARYO VILOYATINING TURIZM SALOHİYATINI KARTOGRAFIK USLUBLAR ASOSIDA TADQIQ QILISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada turizm sohasini tizimli kartaga olishda kartografik usullar va zamonaviy geoaxborot texnologiyalari yordamida ma'lumotlarni to'plash, saqlash, ularni raqamli ko'rinishga keltirish, tahlil qilish, qayta ishlash, turistik infratuzilma obyektlarini davlat kadastridan o'tkazish, tabiiy, tarixiy-madaniy resurslarni baholash va inventarizatsiya qilish, turistik-rekreatsion zonalar, turistik marshrutlarini aniqlash va tatbiq etishning yangi ilmiy-texnikaviy yechimlarini ishlab chiqish bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** Geoaxborot texnologiyalari, turistik resurslar va infratuzilma obyektlari, turistik kartalar, inventarizatsiya, tabiiy-rekreatsion.

**Kirish.** Jahonda va uning turli mintaqalarida turizm jarayonlarini rivojlantirishda zamonaviy uslublarni asosida yaratilgan tizimli kartalardan foydalanish yetakchi o'rinni egallamoqda. Dunyo miqyosida turizm sohasi uchun aniq ma'lumotli tizimli kartalarga bo'lgan ehtiyojning ortishini hisobga olsak, zamonaviy texnologiyalardan foydalanib geografik ma'lumotlar bazasi asosida turistik kartalarni tuzishning yangi usullarini amalga oshirishga joriy etishni taqazo etadi. Shu jihatdan turizm maqsadlari uchun turistik resurslar va infratuzilma obyektlari haqidagi to'liq, ishonchli va tezkor hamda oson qo'lga kiritiladigan ma'lumotlar olishning kartografik usullarini joriy etish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda turizm sohasini tizimli kartaga olishda kartografik usullar va zamonaviy geoaxborot texnologiyalari yordamida ma'lumotlarni to'plash, saqlash, ularni raqamli ko'rinishga keltirish, tahlil qilish, qayta ishlash, turistik infratuzilma obyektlarini davlat kadastridan o'tkazish, tabiiy, tarixiy-madaniy resurslarni baholash va inventarizatsiya qilish, turistik-rekreatsion zonalar, turistik marshrutlarini aniqlash va tatbiq etishning yangi ilmiy-texnikaviy yechimlarini ishlab chiqishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni inobatga olgan holda turizm sohasini tizimli kartaga olishni ilmiy asoslarini takomillashtirishda geoaxborot tizim va kartografik ta'minlashning zamonaviy texnologiyalari va usullarini ishlab chiqishga qaratilgan tadqiqotlarga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda iqtisodiyotni, xususan, turizmni rivojlantirish, mamlakatimiz aholisini turistik talabini maksimal darajada qondirish, mintaqalarni kompleks rivojlantirishda ekologik muvozanat va madaniy merosni saqlash, turizm sohasini barqaror rivojlanishini ta'minlash, byudjetda turizm sohasidan keladigan daromadni muntazam oshirib borish, istiqbolli turizm markazlari tashkil qilish, ekskursiya ishini rivojlanish darajasini ko'tarish, qishloq turizmini rivojlantirish, mintaqaviy turistik-rekreatsion faoliyatni axborot va reklama ta'minotini takomillashtirishga doir keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, jumladan, hududlarning turizm resurslari va infratuzilma obyektlarini kartografik ta'minlash va geografik axborot tizimlari (GAT) asosida mintaqaviy turizmni tizimli kartaga olishni ilmiy asoslarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Sohaga tegishli ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, turizm kartalari tasnifi va ularni yaratishning o'ziga xos jihatlari, turistik planlar, kartalar seriyasi va atlaslar yaratishda zamonaviy texnologiyalar, turizmni

tizimli kartaga olishning tamoyillari va usullarini ishlab chiqish bo'yicha chet el olimlari qatori respublikamizda ham ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Binobarin, turizmning nazariy va amaliy jihatlarini chet el olimlaridan I.G.Kol, A.Gettner, A.Mariotti, V.Unitsiker, K.Krapf, V.C.Preobrajenskiy, N.N.Baranskiy, V.I.Azar, M.B.Birjakov, I.T.Balabanov, V.A.Kvartalnov, Y.D.Dmitrevskiy, A.Y.Aleksandrova, O.O.Beydik, L.I.Muxina, Y.Putrik, I.T.Tverdoxlebov, N.S.Mironenko, S.R.Yerdavletov va boshqalar tadqiq etishgan. Shuningdek, turizmni kartaga olishning nazariy va uslubiy asoslarini N.N.Baranskiy, A.M.Berlyant, K.A.Salishev, R.V.Atayan, A.I.Yelchaninov, V.V.Sveshnikov, N.N.Svatkov, F.Severinov, I.M. Yakovenko, L.O.Vasilyev, A.S.Vasmut, N.Y.Nedashkovskiy, O.O.Beydik va boshqalar ishlab chiqishgan.

O'zbekistonda turizm sohasiga oid ilmiy tadqiqotlar A.Soliyev, I.S.Tuxliyev, N.Tuxliyev, A.N.Nigmatov, B.X.To'rayev, Q.X.Abduraxmonov, M.Q.Pardayev, B.SH.Safarov, O.X.Xamidov, M.T.Alimova, M.T.Aliyeva, M.A. Xoshimov, M.R.Usmonov, N.Ibodullayev, Z.I.Usmonova va boshqa mahalliy olimlar tomonidan olib borilgan hamda turizm kartalarini yaratishga oid ilmiy tadqiqotlar T.Mirzaliyev, A.Egamberdiyev, E.Y.Safarov, J.Qoraboyev, I.M.Musayev, F.E.Gulmurodov, O.Allanazarov, S.N.Abduraxmonov va boshqa olimlar tomonidan olib borilgan hamda ijobiy natijalarga erishilgan.

**Tadqiqotlar metodologiyasi.** Bugungi kunda mamlakatimizning turli mintaqalarida turizmni rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlari, turizm infratuzilma obyektlari ma'lumotlar bazasini yaratish va zamonaviy turistik kartalarni tuzish hamda turizm turlarini to'liq qamrab oluvchi tizimli kartalarni yaratishning ilmiy asoslarini takomillashtirish bo'yicha tadqiqotlar yetarli darajada o'rganilmagan.

Hududning tabiiy-rekreatsion va tarixiy-madaniy resurs potentsiali turizm sohasi taraqqiyotida muhim omillar bo'lib xizmat qiladi. Turizm taraqqiyoti viloyatda transport, savdo, aloqa, qurilish, qishloq xo'jaligi kabi tarmoqlar rivojiga ham katta ta'sir qiladi va iqtisodiyotning shakllanishida ham istiqbolli yo'nalishlarini belgilab beradi.

Maqsadli olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki Qashqadaryo viloyatining turistik resurslarini o'rganish bo'yicha bir qancha olimlar A.Soliyev, M.R.Usmonov, M.T.Alimova, N.Ibodullayev, M.A.Xoshimov, A.Raxmatullayev, B.X.Turayev, Z.I.Usmonova va boshqalar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda asosiy e'tibor turizm resurslarini o'rganishga qaratilgan bo'lib, turizm maqsadlari uchun tizimli kartaga olish masalalariga qisman yoritilgan.

Turizm maqsadlari uchun tizimli kartaga olishda dastlab hududning geografik o'rni, tabiiy sharoiti, iqlimi, turizm resurslari potentsiali tadqiq qilinishi lozim.

**Taxlil va natijalar.** Qashqadaryo viloyati O'zbekistonning tekisliklar, tog' va tog'oldi hududlariga hamda o'ziga xos tabiiy va iqlim sharoitlariga ega bo'lgan hududdir. Umumiy sarhadlari uzunligi 795 kilometrni tashkil etib, shuning 400 kilometri tog' tizmalari orqali o'tadi. Uning jami hududi 28,4 ming km<sup>2</sup> bo'lib, Respublika yer maydonining 6,3%ni tashkil etadi. U maydoni jihatdan Albaniya, Niderlandiya, Belgiya va Armaniston davlatlarining maydoni bilan tengdir.

Viloyat hududi asosan Qashqadaryo botig'ini o'z ichiga olgan; shimoliy-sharq va janubiy-sharqdan Zarafshon hamda Hisor tog' tizmalari bilan o'ralgan. Tog'lar va tekisliklar orasini adirlklar egallagan. Tekislikning katta qismi g'arbda Sandikli va Qizilqum cho'llari bilan tutashgan Qarshi cho'lidano iborat.


Yer yuzasini hozirgi relyef shakllari uzoq vaqt davom etgan yerning ichki (endemik) va tashqi (ekzogen) kuchlarning o'zaro ta'siri natijasida vujudga kelgan bo'lib, yuzasi bir xil emas.

Yer yuzasining eng katta planetar relyef shakli bu okean va materiklar hisoblanib, undan so'ngi katta asosiy relyef shakli uzoq davom etgan "geologik jarayon"da sodir bo'lgan ichki kuchlar ta'sirida vujudga kelgan tekislik va tog'liklardir. Aksincha, relyefning kichik shakllari – daryo vodiysi, jar, tepa, barxan kabilar esa yerning tashqi kuchlari (ekzogen) ta'sirida vujudga kelgan. Yer yuzasining quruqlik qismining asosiy relyef shakllari tekislik va tog'lar bo'lib, tekisliklar quruqlik maydonining 60 % ni, tog'lar esa 40 % egallaydi. Osiyo hududida aksincha tekisliklar 43 % ni egallaydi.

Quruqlik yuzasining mutloq balandligi 500 m dan ortiq bo'lgan joylar tog'lar deyiladi. Tog'lar maydoni 67,0 mln.km<sup>2</sup> bo'lib, butun yer sharining 13.2 % ni tashkil etadi.

Qashqadaryo viloyati hududi relyefi ancha murakkab bo'lib, yer yuzasi sharqdan g'arbga pasayib adirlarga, so'ngra esa tekisliklarga aylanib ketadi. Taxminan yarmidan ko'roq qismini tekislik va uncha baland bo'lmagan o'nqir – cho'nqir tepaliklardan iborat (250-500 metr dengiz sathidan baland). Shimoliy-sharq va janubiy-sharqdan g'arbga tomon cho'zilgandir. Janubiy-g'arbga tomon esa pasayib boradi. Katta maydonga ega bo'lgan Qarshi cho'li ham aynan shu yerda joylashgan.

Biroq bu viloyat hududida onda-sonda (pastroq) qoldiq tog'lar va platolar ham uchray turadi. Viloyat shimoliy-sharq va janubiy-sharqdan tog'lar bilan o'ralgan. Bu yerda Zarafshon va Hisor tizmalari, Chaqchar tog'lari ko'tarilib turadi. Ularning eng baland nuqtasi 3750-4400 metrgacha yetadi. Shahrisabz tumanining eng chekka sharqiy qismida 4100-4400 metrlik balandlikka yega bo'lgan tog' cho'qqilari bor. Masalan, Gova davanovning balandligi 4415 metr. Umuman olganda Shahrisabz, Qamashi, Dehqonobod, Kitob va Chiroqchi tumashimoliy qismi tog'lardan iborat.



1-rasm Masofadan zondlash natijasida tayyorlangan Qashqadaryo viloyati relyefining raqamli modeli

Nisbatan baland (dengiz sathidan 4400 metr baland) joylar ham mavjud bo'lib, bunga Yakkabog' tumanining sharqiy hududlarida ham bor. Qarshi shahrining shimolida Qo'ng'irtog' (517 metr), Koson shahrining janubida Kosontog', Moymoqtog' (500 metr), Sandikli qumligining sharqida esa Oloviddintog' (485 metr), viloyat g'arbida Jarqoq platosi (397 metr) va Dengizko'l (380 metr) platosi joylashgan. Qarshi, Nishon, Qarnob hamda, Malik cho'llari va Sandikli qum cho'llari kabi qator

cho'llar mavjud. Qashqadaryo viloyatining g'arbi Sandiqli qumligi bilan tutashib ketadi Sandiqli qum cho'lining yuzasida qator qum tepalar va marzalardan iborat. Bundan tashqari, bu yerlarda ko'chma qumlar hamda taqirlarni ham uchratish mumkin. Viloyatning g'arbida juda katta Qarshi cho'li bor; uning yer yuzasi Qarshi vohasiga nisbatan past (250- 300 metr) bo'lsada lekin unda o'nqir-cho'nqir yerlar ko'p. Past yerlarda Do'latlisho'r, Sho'soy, Oqjayronsoy, Sho'xtasho'r, Yonboshsho'r va boshqa sho'rxoklar, taqirlar xosil bo'lgan. Qarshi cho'li shimoli va shimoli-g'arbga davom etib Qarnob va Malik cho'llariga borib qo'shiladi. Qarnob cho'lining mutloq balandligi 250-300 metr bo'lib, shimolda Ziyovuddin tog'lariga tutashadi. G'arb tomonga pasayib Toshloqqum hamda Uchqum qumliklariga aylanadi. Qarnob cho'li toshloq, taqir va sho'rxok yerlardan iboratdir. Uning janubida Malik cho'lga borib tutashib ketadi. Malik cho'li g'arbdan sharqqa qarab 65 km cho'zilgan. Qarshi cho'lining janubida Nishon cho'li joylashgan bo'lib, yer usti tuzilishi jihatidan tekisliklardan iborat va ular orasida platosimon balandliklar ham uchraydi. Ushbu balandliklarning eng muhimlari Qoraqir (mutloq balandligi 500 metr), Do'ltalitog' (mutloq balandligi 514 metr) Oloviddintog' (485 metr) va boshqalar mavjud. Bular ichida Qoraqir suv eroziyasi natijasida parchalanib, notekis relyeflar, ya'ni jarliklar vujudga kelgan. Shu sababli tub aholi Qoraqirning jarlardan iborat bo'lgan sharqiy qismlarini "Sakson dara" deb atashadilar. Shunday qilib mintaqaning yer yuzasi orografik tuzilishi shimoliy-sharq, sharq va janubiy-sharqdan g'arb, shimoliy – g'arb yo'nalishida pasayib borish bilan tavsiflanadi. Qolaversa Qashqadaryo, ya'ni shu nomli gidrografik tizimning, uning havzasini shakllanishi, oqim yo'nalishi ham viloyat relyefini o'zida aks ettiradi.

Qashqadaryo o'lkasining shimoliy-sharqi tog'liklar va tepaliklardan iborat bo'lib, bu hududda Zarafshon tizmasining g'arbiy davomi hisoblangan Chaqilkalon tog'i joylashgan. Chaqilkalon tog'i asosan, kenglik bo'yab cho'zilgan, eng baland cho'qqisi Zebon-2336 metr. Chaqilkalon tog'ining g'arbidagi Qirqtog' platosida karst jarayoni va Turkistondagi eng chuqur Kili g'ori (chuqurligi 1082 metr) joylashgan. Chaqilkalon tog'i Taxtaqorachi (1630 metr) davonida tugaydi, so'ngra g'arbga qarab Qoratepa tog'i davom etadi. Qoratepa tog'ining eng baland Kamqo'ton cho'qqisi 2195 metrga yetadi. Taxtaqoracha davonidan Samarqand – Kitob avtomobil yo'li o'tgan. Qoratepa tog'i Jom cho'lida tugab, so'ngra Zirabuloq tog'i boshlanadi. Ziyovuddin – Zirabuloq tog'lari ham paleozoy erasining gersin tog' paydo bo'lish bosqichida burmalangan. Ular nurash jarayon»i ta'sirida pasayib, yassilanib qolgan va quruq soylar bilan parchalanib yuborilgan. Hisor Qashqadaryo o'lkasidagi eng baland tog' tizmasi hisoblanadi. Hisor tizmasi gersin burmalanishida sodir bo'lgan bo'lib, asosan paleozoy granit ohaktosh va slanetslardan tashkil topgan. Tik va qoyali yonbag'irlar hamda chuqur daralarni hosil qilgan bu qattiq jinslar ko'p yerlarda ochilib yotadi. Hisor tog' tizimi bir necha tizmadan iborat. Ularning eng muhimlari Hazrati Sulton, Chaqchar tog'lari hisoblanadi. Bu tog'larning eng baland cho'qqisi Hazrati Sulton bo'lib, 4643 metrga yetadi. Bu tog'larda Botirboy (uzunligi 2,2 km. maydoni 3 kv. km.) muzligi joylashgan. Hisor tizmasida 3209 metr balandlikda Muxbel davoni ham mavjud. Hisor tizmasida shimoli g'arbga va g'arbga qarab Sho'rtog' va Suvsar tog'lari boshlanadi. Chaqchar tog'ining sharqida Boysun tizmasi joylashgan. Beshnov, Eshakmaydon kabi tog'lar ajralib chiqadi. Qashqadaryo o'lkasiga qaraydigan tog'larning quyi qismida adirlar joylashgan. Adirlar o'lkaning tekislik qismini sharqdan o'rab turadi. Zarafshon, Hisor tog'lari orasida Kitob-Shahrisabz botig'i joylashgan. Viloyat relyefining bunday turli-tumanligi o'ziga xos tabiiy boyliklarga egaligini asoslab beradi va ichki hududiy mehnat taqsimoti iqlim sharoitlarning shakllanishiga sabab bo'ladi.

Viloyatni o'rtacha yillik harorati ijobiy ko'rsatgichga ega bo'lib, rekreatsiyaning ko'pgina turlarini rivojlantirish imkonini beradi.

Turistik-rekreatsion resurslarni kompleks baholash mezonlari bo'yicha balli baholashni amalga oshirilgan holda, ularni umumiy mahrajga keltirib, integral baholashga erishishdir. Bu esa quyidagi formula asosida aniqlanadi.


$$\Sigma_{KB} = \Sigma_I TITR + \Sigma_{II} TMTR + \Sigma_{III} IITR \quad (1)$$

Bu yerda,  $\Sigma_I TITR$  – tabiiy-iqlimiy turistik resurslar,

$\Sigma_{II} TMTR$  – tarixiy-madaniy turistik resurslar,

$\Sigma_{III} IITR$  – ijtimoiy-iqtisodiy turistik resurslar.

Bizning fikrimizcha, turistik infratuzilma salohiyatini baholashda, shuningdek, viloyat markazigacha eng yaqin bo'lgan masofa ko'rsatkichini ham kiritish maqsadga muvofiq. Har bir mintaqa turistik salohiyati turizm- rekreatsiya resurslarining har xil individual miqdoriy va sifat xususiyatlariga qarab o'zgarib turadi, shuning uchun ularni tadqiq qilish va baholash mintaqada tadbirkorlikni rivojlantirishni rejalashtirish uchun zaruriy shartdir.



**2-rasm. Qashqadaryo viloyati obzor turizm kartasi fragmenti**

(Izoh: karta maxsus mazmuni muallif tomonidan ishlab chiqilgan)

Tavsiya etilgan baholash metodi, boshqalardan farqli o'laroq, mavjud resurslardan foydalanish omillarini tarkibiy jihatdan baholashni emas, balki mintaqa ma'muriy markazlarining turistik-rekreatsion salohiyatini integral baholashda ham aks etadi

**Xulosa.** Yuqoridagi ma'lumotlarni inobatga olgan holda, Qashqadaryo viloyatining turistik-rekreatsion salohiyatining 1:1000000 masshtabdagi kartasi yaratildi Natijada, viloyatning tabiiy-iqlimiy, tarixiy-madaniy va ijtimoiy-iqtisodiy turistik-rekreatsiya salohiyatini kompleks baholash, shuningdek, hududlarning umumiy sayyohlik-rekreatsiya salohiyatini aniqlash imkoniyati vujudga keladi.

Turizm infratuzilmasining rivojlanishi hududning turistik-rekreatsiya jozibadorligi uchun muhim iqtisodiy ko'rsatkichdir. Turistik infratuzilmaning eng muhim tarkibiy qismi turistlarni vaqtincha joylashtirish vositasidir Sayyohlik xizmatlari ko'rsatish tizimida mehmonxona va boshqa joylashtirish vositalari alohida ahamiyatga ega.

Shunday qilib, Qashqadaryo viloyatining turistik resurslar ko'rsatgichlarini qayta tahlil qilishda, kompleks baholash metodikasi tabiiy-iqlimiy, tarixiy-madaniy va ijtimoiy-iqtisodiy resurslarga ega bo'lgan hududlarni, shuningdek, tumanlarning turistik-rekreasiya resurslar salohiyati bo'yicha umumiy reytingini aniqlash imkonini berdi.

Kompleks baholash natijalariga ko'ra nafaqat tumanlarning turizm resurslari salohiyati qiymatlarini taqqoslash, balki davlat organlariga hududlarning turistik jozibadorligini oshirish va mintaqada sayyohlik yo'nalishini jadal rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar berish imkonini ham beradi. Turistik kartografik asarlarining mazmun mohiyatini shakllantirish turistik resurslarning majmui ekanligi e'tirof etildi.

Mavjud turizm kartalarining tahlili asosida zamonaviy turizmning shakllari, turlari, sinfi, tipi, hududiy qamrovi, mazmuni, maqsadi va masshtabi kabi guruhlarda tasniflash talab etilishi ko'rsatib berildi.

#### ADABIYOTLAR

1. Yevseyev A.V., Krasovskaya T. - M.:Tikunov V.S. Primeneniye sredstv geoinformatiki dlya otsenki perspektiv razvitiya rekreatsii na arkticheskom poberejye Rossii // Geoinformatika. – M.: 1999. - № 1. – S. 52-59.
2. Yel'chaninov A.I., Sveshnikov V.V. Turistskiye karti // Kartograficheskaya izuchennost Rossii (topograficheskoye i tematiceskoye karti) // Pod red. Lyutogo A.A. i Komedchikova N.N. – M.: In-t geografii RAN, 1999. – S. 243-267.
3. Yel'chaninov A.I., Bronnikova V.K., Lyutiy A.A., Sveshnikov V.V. Kartografirovaniye kul'turnogo i prirodnogo naslediya-novoye napravleniye tematiceskoy kartografii v Rossii // Dokl. I Vseros. nauch. konf. po kartografii «Kartografiya na rubeji tisyacheletiy». – M.: 1997. – S. 281-286.
4. Ibodullayev N.E. Turistik resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish imkoniyatlari (Samarqand viloyati misolida). Iqt. fan. nom. ilmiy darajasini olish uchun diss. avtoref-S., 2010. 25-b.
5. Kirov I.K., Anderson V.N. sozdaniye i eksplutatsiya elektronogo turisticheskogo atlasa g. Odessi // Mat. Mejdunar. nauch.-prakt. konf. «Krayevedeniye i turizm: obrazovaniye, vospitaniye, stil jizni». - M.: Reforma. - 1998. - S. 145-147.
6. Lurye I.K. Geoinformatsionnoye kartografirovaniye. Metodi geoinformatiki i sifrovoy obrabotki kosmicheskix snimkov. – M.: KDU, 2008. - 226 s.
7. Markova A.Y. Obshiy Obzor turisticheskoy kartografii Ukraini // Turisticheskoye krayevedcheskiye issledovaniya: Mat. III Vseukr. nauch.-prakt. konf. «Turizm v Ukraine: ekonomika i kultura». - Vip. 1. - CH.2. - M.: KM-treyding. –M.: 1998. - S. 303-309.
8. Mirzaliyev T., Allanazarov O.R. Kartalarning informatsion sig'imi to'g'risida // O'zbekiston milliy atlasini yaratishning ilmiy-uslubiy asoslari. – T., 2009. –198-199-b.
9. Pastushkova S.A. Opit rekreatsionnogo kartografirovaniya severnix territoriy Rossii // Geodeziya i kartografiya. – 2000. - № 5 – S. 32-38.
10. Saidova S.R., Safarov E.Y., Sayidov A.K. Gidroekologik kartalarni tuzishda generalizatsiya jaryoni: an'anaviy va zamonaviylik // O'zbekiston Geografiya jamiyati axboroti, 43-jild – T., 2014. – 184-187-b.
11. Salishev K.A. Prinsipi i zadachi sistemnogo kartografirovaniya // Sistemnogo kartografirovaniya prirodnix i sotsialno-ekonomicheskix kompleksov. – M.: 1978. – S. 481-489.
12. Severinov V.F. Kartograficheskoye analiz sferi obslujivaniya turizma v Ukraine // Vestnik geodezii i kartografii. –M.: 2001. - № 4. - S. 37-43.